

## 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmi



Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmining o'sish  
sur'atlari

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvarsentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 345,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 813,2 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdarligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

|  | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>  | <b>6 345,5</b>       | <b>103,3</b>                                     |
| shu jumladan:  |                      |  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 368,4                | 110,4  |
| Moliyaviy xizmatlar  | 1 075,0              | 128,6  |
| Transport xizmatlari   | 1186,9               | 101,7  |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari   | 11 08,1              | 105,1  |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 133,5                | 93,7   |
| Savdo xizmatlari   | 2085,9               | 99,4   |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 162,0                | 92,9   |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 298,7                | 114,2  |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 118,3                | 83,8   |
| Ijara xizmatlari   | 140,1                | 113,1  |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 157,0                | 95,5   |
| Shaxsiy xizmatlar  | 368,6                | 91,0   |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 95,4                 | 65,3   |
| Boshqa xizmatlar   | 155,7                | 96,2   |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 32,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,7 %), moliyaviy xizmatlar (16,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,8 %) qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush Sog'liqni saqlash soxasidagi xizmatlar - 1,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,1 % ga to'g'ri keldi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojanishi

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (32,9 %), transport xizmatlari (18,7 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (16,9 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

### Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi




Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.

Omborxona va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 6,3 % ni tashkil etdi.

Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,3% ni qayd etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

## Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-sentabr oylarida)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 76,0 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,9 % ni tashkil etib, bu 2 085,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
*(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)*



**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosi,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda**

**Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)**

**Avtomobillar  
va mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar**

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining 78,6 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 16,1 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm da  
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**



|                      |                  |
|----------------------|------------------|
| Namangan sh.<br>so'm | 550,9 mlrd.      |
| To'raqo'rg'on        | 191,5 mlrd. so'm |
| Pop                  | 154,5 mlrd. so'm |
| Namangan.t           | 150,4 mlrd. so'm |
| Chust                | 147,8 mlrd. so'm |
| Yangiqo'rg'on        | 144,2 mlrd. so'm |
| Chortoq              | 138,5 mlrd. so'm |
| Uchqo'rg'on          | 133,7 mlrd. so'm |
| Kosonsoy             | 131,4 mlrd. so'm |
| Uychi                | 124,5 mlrd. so'm |
| Norin                | 113,3 mlrd. so'm |
| Mingbuloq            | 105,3 mlrd. so'm |

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Namangan shahrida (550,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (191,5 mlrd. so'm), Pop (154,5 mlrd. so'm), Namangan.t (105,3 mlrd. so'm), Chust (147,8 mlrd. so'm).

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,3 % ni egallaydi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 075,0 mlrd. soʻmni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi 778,1 mlrd. soʻmga teng boʻldi.



**Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 14,1 % ni tashkil etdi.

**Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 296,9 mlrd. soʻmga koʻpayishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning oʼsishi 28,6 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida ularning oʼsish surʼati 174,1 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʼlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʼyicha xizmatlari uchun toʼlanadigan haq hisobiga koʼra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni koʼrsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2020- yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1075,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 128,6 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (91,4 %) tashkil etadi.


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 368,4 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 110,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshlari aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 97,2 % ni tashkil etdi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideeniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi. Nashriyot xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarinung 2,0 % ni tashkil etadi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 298,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,2 % ni tashkil etdi.



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 93,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 133,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,1 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 9,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

## Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 83,9 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 16,1 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 118,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,9 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,8 % ni tashkil etdi.




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, % da



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida Namanagan shahrining ulushi yuqori - 45,7 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Chortoq (10,8 %), To'raqo'rg'on (9,9 %) va Kososnsoy (7,5%) tumanalarida qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'Imagan hududlar Norin (1,2 %), Mingbuloq (1,8 %), Yangiqo'rg'on (2,6 %), Namanagan t (2,8 %) va Uchqo'rg'on (3,4 %) tumanlarida qayd etildi

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlarning umumiyligi hajmida Namanagan shahrining ulushi eng ahamiyatlidir bo'lib, 45,6 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanalardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.


Shuningdek, eng katta ulush To'raqo'rg'on (6,2 %), Pop (5,9 %), Chust (5,4 %) va kosonsoy (5,2 %) tumanalarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Mingbuloq (3,8 %), Norin (4,0 %), Uchqo'rg'on (4,6 %), Uychi (4,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi 44,9 % ni tashkil etgan.

Mingbuloq tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 3,7 % kuzatilgan.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Namanagan shahar (104,7 %), Mingbuloq (103,6 %), Norin (104,4 %), Namangan t

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

(102,7 %), Chortoq (102,4 %), Yangiqo'rg'on (102,2 %) va Uchqo'rg'on (102,2 %) tumanlari va Namanagan shaharida (104,7 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish Pop (101,5 %), Kosonsoy (101,0%) va To'raqo'rg'on (100,7%) tumanlarida qayd etildi

Ko'rilib yotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Namanagan shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2890,6 mlrd. so'mga yetdi.

### **Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

|               | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish sur'ati, % da |         |
|---------------|----------------------|---|---------|
|               |                      | 2020-y.                                       | 2019-y. |
| Namangan sh   | 2 890,6              | 103,3   | 114,9   |
| tumanlar:     |                      |   |         |
| Mingbuloq     | 238,1                | 103,6   | 106,2   |
| Kosonsoy      | 328,6                | 101,0   | 106,0   |
| Namangan t    | 316,9                | 102,7   | 106,1   |
| Norin         | 252,1                | 104,4   | 106,5   |
| Pop           | 371,5                | 101,5   | 109,3   |
| To'raqo'rg'on | 390,4                | 100,7   | 110,4   |
| Uychi         | 296,1                | 102,1   | 106,6   |
| Uchqo'rg'on   | 293,5                | 102,2   | 104,5   |
| Chortoq       | 323,7                | 102,4   | 107,4   |
| Chust         | 345,4                | 101,7   | 105,2   |
| Yangiqo'rg'on | 298,6                | 102,2   | 105,7   |

\* hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Namanagan viloyatidada xizmatlar sohasining rivojlanishi

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Namanagan (2 890,6 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (390,4 mlrd. so'm), Pop (371,5 mlrd. so'm) va Chust (345,4 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2241,0 ming so'mga yetdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi - 2241,0 ming so'm**

**O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 101,2 %**

**Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 246,8 ming so'mga**

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so‘m**  
*(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)*



Ushbu xizmatlar hajmi ko‘rsatkichi hududlar o‘rtasida Chust tumanida 1296,5 ming so‘mdan Yangiqo'rg'on tumanida 1364,2 ming so‘mgacha bo‘ladi.

Chust tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko‘rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko‘rsatkichlariga bog‘liqligidir.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo’limi

(69) 227-85-28